

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI



**«ZAMONAVTY TILSHUNOSLIK YO'NALISHLARI VA CHET
TILLARINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR»**

MAVZUSIDAGI XALQARO II MIY-AMALIY ANJUMAN



**«СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЯЗЫКОЗНАНИЯ И
ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ОБУЧЕНИИ
ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ»**

МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ



**“MODERN TRENDS IN LINGUISTICS AND INNOVATIVE
APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES”**

PROCEEDINGS INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE



ANDIJON-2024. 10-IYUN

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI



«ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK YO'NALISHLARI VA CHET
TILLARINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR»

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN



«СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЯЗЫКОЗНАНИЯ И
ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ОБУЧЕНИИ
ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ»

МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ



“MODERN TRENDS IN LINGUISTICS AND INNOVATIVE
APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES”
PROCEEDINGS INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL
CONFERENCE

2024-YIL 10-IYUN

ANDIJON – 2024

Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 18-yanvardagi “2024-yilga mo‘ljallangan xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 16-sonli buyrug‘i, shuningdek, mamlakat ilm-fani nufuzini yanada oshirish va xalqaro ilmiy-texnik hamkorlik ko‘lamini kengaytirishga qaratilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpozium, kongress, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlarni yuqori ilmiy va tashkiliy amaliy darajada samarali o‘tkazilishini ta‘minlash maqsadida Andijon davlat chet tillari institutida “Ingliz tili nazariy aspektlari”, “Ingliz tili va adabiyoti” hamda “Ingliz tili amaliyoti” kafedralari tomonidan “Zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlari va chet tillarini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazildi.

Mas‘ul muharrir(lar):

f.f.n., prof. S.O.Solijonov

Tahrir hay‘ati:

f.f.d.prof. D.A.Rustamov
f.f.d.prof. M.I.Umarxo‘djayev
PhD. dots. M.A.Qurbonov
f.f.d.prof. G‘.M.Xoshimov
f.f.d.prof. V.A.Vositov
PhD. dots. M.G‘.Xoshimov
p.f.n. prof. Sh.S.Alimov
PhD. G.M.Ibragimova
PhD. Q.Umrzakov
kafedra o‘qituvchisi N.Xamidov
kafedra o‘qituvchisi Z.No‘monova

Tahrir nashriyoti bo‘limi muharriri:

A.A.Xomidov

Ilmiy-amaliy konferensiya materiallariga oid mazkur to‘plam, tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari va chet tillarini o‘qitishdagi innovatsion yondashuvlar hamda ulardagi dolzarb masalalarga bag‘ishlanligi bilan ahamiyatlidir.

Mazkur to‘plamdan respublika va xorijiy oliy ta‘lim muassasalarida hamda ilmiy-tadqiqot markazlarida faoliyat olib borayotgan olimlar, professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, magistrlar va iqtidorli talabalarning ilmiy maqolalari joy olgan.

To‘plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlar sanasining to‘g‘riligiga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

Andijon davlat chet tillari instituti, 2024-yil

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA QORISHIQ HOL ERGASH GAPLI QO'SHMA GAPLAR VA ULARNI BOG'LOVCHI VOSITALAR

M.O.Usmonova
ADCHTI o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi ingliz va o'zbek tilida qorishiq hol ergash gapli qo'shma gaplarga misollar berilgan va har ikkala tilga solishtirib, tahlillar keltirilgan va olimlarning ushbu mavzuga oid muloxazalari, tarjima jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ayrim muammolar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: sinkretizm, polisemiya, omonimiya.

Hozirgi zamon tilshunosligida qo'shma gaplar tahlili jarayonida ularning qorishiq turi haqida ma'lumotlar yo'qligiga guvoh bo'lamiz. Biz ushbu tezis orqali qo'shma gaplarning mavjud tasnifini qorishiq hol ergash gapli qo'shma gaplar bilan to'ldiramiz.

Tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, ingliz tilida, vaholanki boshqa tillarda ham, qo'shma gaplarning, ayniqsa, hol ergash gapli qo'shma gaplarning, qorishiq turlari ham uchraydiki, ularni tarjima qilish jarayonida bir qancha muammolarga duch kelamiz. Biz bu kabi gaplarni tarjima qilishda ergash gapli qo'shma gaplarni bog'lovchi vositalarga e'tibor qaratishimiz zarur. Negaki bog'lovchi vositalar tarjima jarayonida tarjima qilinmas ekan hol ergash gapli qo'shma gapning ma'nosiga putur yetadi. Masalan ingliz tilida "lest", "in case", "until", "till", "for fear that" bog'lovchilarini qorishiq ma'no anglata olishini ko'rib chiqamiz.

He found it difficult to sleep at night, anxious lest his delay might cause further tragedy at Godstowe. . [Longman Dictionary of Contemporary English PDF] *Uning kechikishi Godstoweda yana bir fojiga sabab bo'lmasligidan xavotirda bo'lib, tunda uxlash qiyin bo'ldi.*

Immediately I felt worried lest I be seen as different from the others. . [Longman Dictionary of Contemporary English PDF]

Boshqalardan farqli o'laroq ko'rinib qolmasligimdan darhol xavotirda bo'ldim.

He paused, afraid lest he say too much. [From Longman Dictionary of Contemporary English] *U juda ko'p gapirmasin deb qo'rqib, to'xtab qoldi.*

She worried lest he should tell someone what had happened. . [From Longman Dictionary of Contemporary English] *U bo'lib o'tgan voqeani bironvga aytib bermasin deb, xavotirda edi.*

She turned away from the window lest anyone see them. [Longman Dictionary of Contemporary English] *Ularni hech kim ko'rmasin deb, u derazadan uzoqlashdi.*

Ushbu gaplardan ko'rinib turibdiki "lest" bog'lovchisi bir paytning o'zida ham maqsad ham sabab ma'nolarini qorishtira oladi.

Bring a map in case you get lost. (Cambridge Advanced Learner's Dictionary & Thesaurus © Cambridge University Press)

Mabodo yo'qolib qolsangiz deb, haritani oling.

Take umbrella in case it rains. (Oxford dictionary p 92)

Mabodo yomg'ir yog'sa deb, soyabon oling.

The camping area has ready access to water, in case of fire. (Definition of lest from the Cambridge Advanced Learner's Dictionary & Thesaurus © Cambridge University Press)

Qarorgoh hududida yong'in sodir bo'lsa deb, suv foydalanishga tayyor.

Ushbu gapda ham maqsad ham shart ma'nolari qorishadi

They wouldn't let their cat outside for fear (that) it would get run over.

(Cambridge Advanced Learner's Dictionary & Thesaurus © Cambridge University Press)

Ular mushuklarini qochib ketishmasin deb, tashqariga chiqishga ruxsat bermas edilar.

Yuqoridagi gapda ham maqsad ham sabab ma'nolari qo'sh ma'noli hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash joizki hozirgi zamon o'zbek tilida ham qorishiq hol ergash gapli qo'shma gaplar mavjud.

Urush janjal ko'paymasin deb, butun dardimni ichimga yutaman(Oybek)

Odamlar ishdan qolmasin deb, marosimni soat besht yarimga tayin qilganmiz (Said Ahmad) Ushbu gaplarda ham maqsad ham sabab hollari mavjud.

Afsuslar bo'lsinki, bu turdagi qorishiq ma'noga ega bo'lgan hol ergash gapli qo'shma gaplarni tahlili jarayonida ularga oid mavjud manbalarda keraklicha ma'lumotlar yo'q.

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, qorishiq hol ergash gapli qo'shma gaplar turi universal bo'lib, u barcha tillar uchun hos deyishimiz mumkin.

Yuqorida zikr etilgan qorishiq hol ergash gapli qo'shma gaplarni o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida ularda sinkretizm hodisasi mavjud ekanligini va aynan shu sinkretizm tarjima tilida ham saqlanishi lozim ekanligini ta'kidlash kerak, aks holda tarjima adekvatlikni ta'minlay olmaydi va biz bu yerda mazmun ko'lamiga putur yetayotganligini guvohi bo'lamiz. Bunday holatda tarjimonga gapning ma/nosini semalarga (ma'no bo'lakchalari)ga ajratib tahlil qilish metodi juda qo'l keladi, sababi bu metod o'z tahlilida yaxlit ma'noning bevosita uni tashkil etuvchi kichik-kichik ma'no bo'lakchalaridan tashkil topishini e'tirof etadi va ishonchli tahlil usullari orqali ish ko'rishni kafolatlaydi.

Adabiyotlar ro'yhati

- 1 Абдурахмонов Ф. Қўшма гаплар классификацияси // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. — 1980. № 4.
- 2 Абдурахмонов Ф. Қўшма гаплар классификацияси // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. — 1980. № 4
- 3 Виноградов В. В. Основные вопросы синтаксиса предложения (на материале русского языка)//Исследования по русской грамматике. — М. 1975— С.154
- 4 Хошимов.Ф . М. Типология сложных предложений разносистемных языков.— Т. «Фан», 1991-С.105
- 5 Nurmonov A. Tanlangan asarlar. –Toshkent “Akademnashr”, 2012. — B.288
- 6 Nurmonov A. Tanlangan asarlar. –Toshkent “Akademnashr”, II jild, 2012. — B.422

7 Sayfullayeva R. Hozirgi o'zbek tilida qo'shma gaplarning substantsional (zotiy) talqini. — Toshkent. "Fan", 2007.– B.19.

8 Longman Dictionary of Contemporary English APP

9 В. Л. Каушанская, Р. Л. Ковнер, О. Н. Кожевникова, Е. В. Прокофьева, З. М. Райнес, С. Е. Сквирская, Ф. Я. Цырлина А GRAMMAR OF THE ENGLISH LANGUAGE/Высшее образование/2008

10 Cambridge Advanced Learner's Dictionary & Thesaurus © Cambridge University Press APP

KO'P KOMPONENTLI QO'SHMA GAPLARGA TURLICHA YONDASHUVLAR

Nazarova Sevaraxon Jaxongir qizi
ADCHTI doktoranti
nazarovasevara94@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada ingliz va o'zbek tillarida ko'p komponentli qo'shma gaplar – politaksemalarga turlicha yondashuvlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *qo'shma gap hajmi, sintaktik aloqa, komponent, semantik munosabat, murakkab konstruksiya*

Ko'p komponentli qo'shma gaplar (KKQG)ning strukturaviy-semantik tahlili politaksemalarning semantik tuzilishini, qo'shma gap qismlarning bog'lanish xarakterini va ularning orasidagi o'zaro aloqani tavsiflashni o'z ichiga oladi.

G.P.Uxanov ta'kidlashicha, KKQGdagi har qanday sintaktik aloqa kompleksli bo'lib, qo'shma gapning qismlari o'rtasidagi muayyan munosabatlarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bu qismlarning har biri gapning struktural sxemasida ma'lum sintaktik o'rinni egallaydi [1,82].

O'zining ko'p komponentli qo'shma gaplarga bag'ishlangan nazariy tadqiqotida G.P.Uxanov ushbu gaplarning strukturaviy sxemalarini tahlil qilish amaliyotiga yakun yasaydi, ularni predikativ birliklarga bog'liq tizim sifatida ko'rib chiqadi. Tadqiqotchining fikricha, polipredikativlik sharoitida butun gapning ma'nosi predikativ birliklar qismlarining o'zaro munosabati natijasida hosil bo'ladi va aynan shu munosabat KKQG lingvistik qurilishga asos bo'ladi.

V.A.Beloshapkovaning asarlarida bir oz boshqacha pozitsiya taqdim etilgan, u barcha qo'shma gaplarni hajmi (predikativ birliklar soni) bo'yicha emas, balki strukturaviy sxemalar soni bo'yicha tasniflaydi. Olimaning fikricha, barcha qo'shma gaplar minimal konstruksiyalar yoki murakkablashtirilgan turdagi gaplardir [2, 515].

Xuddi shunday tasniflash tamoyilini N.I.Formanovskaya tadqiqotida ham uchratamiz, u minimal va murakkablashgan tuzilmalarga bo'linishni ochiqlik/yopiqlik tamoyili bilan birlashtirib, gapning aktual bo'linish darajalarining muhimligini ta'kidlaydi [3,80].

Ko'p komponentli qo'shma gaplarni zamonaviy tilshunoslikda keng tarqalgan yetakchi sintaktik aloqaga ko'ra tasniflash, Uxanov fikricha, semantik nuqtayi nazardan ham, strukturaviy tuzilish nuqtayi nazaridan ham eng maqbuli

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

119.	NEMIS NIKOH TO‘YLARIDAGI KELIN VA KUYOV VA‘DALARINING LINGVISTIK TAHLILI Sidikjon Muminov Mirsobirovich, Qobil Kaxarov Shuhrat o‘g‘li	376
120.	FRANSUZ ERTAKLARIDAGI HURMAT TAMOYILINING INTENSIONAL XUSUSIYATLARI Sag‘dullayeva Zuhra Ne‘matulla Qizi Suvonova N.N.	380
121.	INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA QORISHIQ HOL ERGASH GAPLI QO‘SHMA GAPLAR VA ULARNI BOG‘LOVCHI VOSITALAR M.O.Usmonova	383
122.	KO‘P KOMPONENTLI QO‘SHMA GAPLARGA TURLICHA YONDASHUVLAR Nazarova Sevaraxon Jaxongir qizi	385
123.	INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI PAREMIYALARIDA “ISH” KONSEPTINING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI Burxonova Gulrux	387
124.	INGLIZ VA O‘ZBEK SPORT TERMINLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI Xabibullayeva Zarnigor Elmurod qizi	390
125.	HOLAT BILDIRUVCHI SO‘ZLARINING INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA SEMANTIK TASNIFI Muzaffarbekova Umidaxon Zayniddin qizi	392
126.	ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ СРЕДСТВА ВЫРАЖЕНИЯ КОМПЛИМЕНТА В АНГЛИЙСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКАХ Xolmuxammedova Sevara Xotam Qizi	399
127.	SEMANTIC FEATURES OF THE PHRASEOLOGICAL UNITS WITH NUMERATIVE COMPONENTS “THREE” IN ENGLISH AND UZBEK Jurayev Ziyodbek Nurmatovich	402
128.	LINGUISTIC AND SEMANTIC CHARACTERISTICS OF PROVERBS WITH THE CONCEPT OF FRIENDSHIP AND ENMITY IN ENGLISH AND UZBEK Abdulazizova Sevara Ganiyevna Abdurahmanova Hulkaroy Tulanbayevna	405
129.	PRAGMATIC AND LINGUOCULTURAL STUDY OF THE CONCEPT "WRESTLING" IN ENGLISH AND UZBEK Matqulov Xosilbek Mavlonovich	407
130.	PROBLEMS OF TRANSLATING OF THE MEANS EXPRESSING THE GENDER SEMANTICS FROM ENGLISH INTO UZBEK Umida Bahodirovna Tuhktamatova	414
131.	ЎЗБЕК ТИЛИДА ОМОНИМЛАРНИНГ ИФОДАЛАНИШИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОХАЗАЛАР Турғунова Э.Э	416
132.	SPORT TERMINLARI ETIMOLOGIYASI VA LUG‘AT BOYLLIGINI OSHIRISHDAGI O‘RNI Mingboyeva Muborakxon Nabiyevna Sagindikova Rahat Jumabayevna	418
133.	THE CLASSIFICATION AND THE DEFINITION OF COLLOCATIONS Mingboyeva Muborakxon Nabiyevna	421